

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafu Bafojev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odiraxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Ushenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar.....6

Marhabo Umurzoqova

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini.....17

Sadagat Abbasova

Turli tillarda ma'nosiz ovoz almashish yo'nalishlari.....31

Adabiyotshunoslik

Sebahat Deniz

Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının
Gelişmesindeki Rolü.....43

Ilyos Ismoilov

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi.....58

Nodira Xolikova

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari
(Cho'lpon va Hamza ijodi misolida).....77

Fan. Ta'lim. Metodika

Vahobjon Nazarov

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va
texnologiyalari.....94

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining
sotsiologik talqini.....108

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi.....132

CONTENT

Linguistics

Abdulhay Sobirov

Reflections on the Present and Future of the Uzbek Language.....6

Marhabo Umurzakava

The Concept of Linguistic Personality and its Linguistic Interpretation...17

Sadagat Abbasova

Directions of Voice Substitutions Without Meaning in

Different Languages.....31

Literature

Sebahat Deniz

The Role of the Great Turkish Khan Babur and his Generation

in the Development of Turkish Literature.....43

Ilyos Ismoilov

The image of Greek Sages in Iskandarnames.....58

Nodira Kholikova

Socio-Aesthetic Factors of the Female image in Uzbek Jadid Poetry

(using the example of poems Chulpan and Hamza).....77

Science. Education. Methodology

Vahobjon Nazarov

Multimedia tools in French Language Classes: Types and

Technologies.....94

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol

of Holiness in Blessings in the Uzbek language.....108

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Legal Status of the Samanids Dynasty.....132

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi

Ilyos Ismoilov¹

Abstrakt

Iskandar mavzusi dunyo va adabiyot tarixida Aleksandr Make-donskiy fenomeni bilan bog'liq holda paydo bo'ldi va asrlar davomida keng tarqaldi. Ushbu mavzu Alisher Navoiy davriga qadar qariyb XX asrlik tarixga ega bo'lib ulguragan edi. E'tiborli tomoni shuki, bu mavzu xamsanavislik an'anasiga Nizomiy Ganjaviy tomonidan ilk bor olib kirildi va asosiy e'tibor jangnomalik xususiyatiga qaratildi. Iskandar mavzusi har qancha asrlar o'tsa ham, madaniyatlar, e'tiqodlar qurshovida qolsa ham, o'zining asl belgilarini saqlab qola oldi. Mazkur mavzuning asliyatiga ishora qilib turuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri yunon donishmandlari obrazlari bo'lib, ular sharqdagi iskandarnomalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Garchi ushbu obrazlar ham sharqona dunyoqarash va islom mafkurasi ta'siriga uchragan bo'lsalar-da, ular butunlay "o'zligini" yo'qotgan emas. Ushbu obrazlarning genezisi va tadrijiy takomilini tadqiq etish, ularning badiiy tasvirlarini o'rganish – muayyan ijodkorlarning ijodiy individualligi, dunyoqarashi va mahoratini tasavvur qilishga yordam beradi. Shu bois ushbu maqolada yunon donishmandlari obrazlari Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" va Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma" dostonlari misolida tahlil etilgan. Masalaning tarixiy takomili, miqyosi va Navoiy ijodida qayta ishlanish jarayoni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Iskandar, Aleksandr, yunon donishmandlari, obraz, Suqrot, Aflotun, Arastu, xamsa, badiiy talqin, tarixiy va adabiy ta'sir.*

Kirish

Badiiyatning muhim talablaridan biri shartlilik bo'lib, u real va badiiy voqelik chalkashmasligini ta'minlaydi. Aslida zamondosh bo'lmagan, lekin "Iskandarnoma" va "Saddi Iskandariy"da zamondosh qilib ko'rsatilgan yunon hakimlari obrazi tasvirini shartlilik, atayin qilingan anaxronizm sifatida qabul qilish lozim. Shunda muallif ularni vaqt chegarasidan chiqarib, muayyan maqsad bilan

¹*Ismoilov Ilyos Abduqayumovich* – filologiya fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

Iqtibos uchun: Ismoilov, I. 2023. "Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 58–76.

birga tasvirlagani to'g'ri tushuniladi. Bu fikrlar Arastuga ham taalluqli deyish mumkin, chunki u Iskandar bilan haqiqatda zamondosh bo'lsa-da, Sharq manbalarida unga nisbat berilgan fikrlarning ba'zilari islomiy dunyoqarash mahsulidir.

S.Bassnet qiyosiy adabiyotshunoslik nima degan savolga javoban aytadiki, "qiyosiy adabiyotshunoslik madaniyatlar o'rtasidagi, fanlararo xususiyatga ega hamda muayyan makon va zamondagi adabiyotlarda mavjud bo'lgan aloqalarni aks ettiruvchi matnlarni o'rganishni qamrab oladi" [Bassnet 1995, 1]. Yunon donishmandlari, umuman, Iskandar bilan bog'liq asarlar aynan adabiy va madaniy ta'sir eng bo'rtib ko'zga tashlanuvchi matnlar hisoblanadi.

Hakimlar yoki yunon faylasuflari obrazi

Hakimlar yoki yunon faylasuflari obrazi Sharqda yaratilgan iskandarnomalarning an'anaviy obrazlari sirasiga kiradi. Ular, asosan, Luqmon, Faysog'urs (Pifagor, m. a. 570 – 496), Suqrot (Sokrat, m.a. 468 – 399), Buqrot (Gippokrat, taxminan 460 – 370), Aflotun (Platon, m.a. 427 – 347), Naqumohis (Nikomax – Arastuning otasi, Makedoniya shohi Aminta saroyida tabib bo'lgan), Arastu (Aristotel, m.a. 384 – 322), Balinos (Appolonios, milodiy I asrda Tyaneda tug'ilgan), Volis (Vettius Valeus, milodiy 120 – 175), Farfurius (Porfiriy, 232 – 301/305), Hirmis (Hermes – (Ερμής, Mercurius) qadimgi greklar Zevs va Mayalarning o'g'li, xudolar xabarchisi, shuningdek, sanoat va turli kashfiyotlar rahnamosi deb qaragan) [Kaya dergipark, 14], Asqalibus (Aesculapius (Ασκληπίος) – qadimgi grek mifologiyasiga ko'ra, tabiblik xudosi (bog vrachevaniya)) [Kaya dergipark, 14], Arshimeds kabilar.

Iskandarnomalardagi bu obrazlar orasida Arastu, Aflotun va Suqrot eng faollari bo'lib, bu holatni turlicha izohlash mumkin:

1. Mazkur donishmandlar Sharqda ham, G'arbda ham mashhur bo'lgan;

2. Ularning qadim yunon falsafasining klassik davri (m.a. V asr o'rtalari – IV asr oxirlari)da yashab o'tgani va bu davrning xronologik jihatdan Iskandar yashab o'tgan vaqtga yaqin kelishi;

3. Bu davr faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu v.b.) antik davr faylasuflaridan farqli ravishda ofarinish substansiyasiga emas, balki borliqning vujudga kelishida Tangri va g'oyalarning o'rni masalasiga katta e'tibor berdi. Ularning qarashlari xamsanavislarning islom ta'limotiga asoslangan tafakkur tarzi bilan ko'proq uyg'un edi.

Bu ismlar sharqlashib ketgan, Sharqda mazkur obrazlarga nisbat beriluvchi qarashlar ham baʼzan sharqona dunyoqarash mahsuli boʻlib, ular bunday paytlarda afsonaviy, ramziy obraz sifatida namoyon boʻladi. Ular Navoiyga qadar va undan keyin turkiy tilda yaratilgan iskandarnomalarda ham shunday xarakterga ega [Avcı 2012, 175 – 188]. V.Zohidov qayd etganidek, “Navoiy “Xamsa”sining baʼzi oʻrinlarida uchraydigan yunonliklar (Arastu, Aflotun, Sokrat, Porfiri, Iskandar v.b.) tarixiy shaxslar emas. Ular... afsonaviy shaxslarga aylantirilgan Navoiy qahramonlari” [Зоҳидов 1968, 3]. Biroq doim ham bu obrazlar va ularning tilidan aytilgan fikrlar sharqona dunyoqarashga tegishli boʻlmasligi, yaʼni tarixiy asosga ega boʻlishi ham mumkin. Chunki “yunon falsafasini islomlashtirish va mahalliy mistik qarashlar bilan uygʻunlashtirish” [Сирожиддинов 2011, 3] natijasida sharq adabiyoti, xususan, oʻzbek mumtoz adabiyotiga yangi-yangi gʻoya, ifoda, motiv va obrazlar ham koʻchib oʻtgan. Shu bois badiiy asarlarda tasvirlangan yunon hakimlari obrazi va ularning tilidan bayon qilingan fikrlarni yoppasiga muallifga nisbat berish biryoqlamalikni keltirib chiqaradi. Iskandarnomalarda turli davrlarda yashagan donishmandlarni bir joyga jamlash va ularni zamondosh qilib tasvirlashdan maqsad muayyan fikrni mashhur donishmand obrazi orqali yanada taʼsirli boʻlishini taʼminlashdan tashqari, asarda muayyan darajada tarixiy sharoitni aks ettirishga urinish natijasidir.

“Buyuk madaniy hamlalar, madaniy evrilishlar ortida faol tarjima jarayoni turadi” [Enginun 2011, 20] deyilganidek, yunon hakimlari obrazi va ularga xos xususiyatlar iskandarnomalarga Sharqda yaratilgan tarixiy, axloqiy xarakterdagi asarlar va yunon manbalarining tarjimalaridan koʻchib oʻtgan. Sharq tarixnavislik anʼanasiga muvofiq, umumiy tarixning anbiyolar zikridan soʻng Ajam shohlari zikridan oldin hakimlarga bagʻishlangan boblar keladi. U yerda hakimlarning nomlanishi, yashagan davri va eng asosiy ishlari yoki qarashlari qisqa tavsiflanadi. Tarixlarda hakimlar yashagan davrning xronologik tartibi tarixiy haqiqatga mos kelsa ham, ularda aniq yillar va qaydlar kam uchraydi. Misol uchun, Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”da 13 hakim (Luqmon, Fishogʻurs, Jomosb, Buqrot, Buqrotis, Suqrot, Aflotun, Aristotolis, Balinos, Jolinus (Galen), Batlimus (Ptolemey), Sodiq, Buzurjmehr) haqida qisqa maʼlumot bergan boʻlib, bu ketma-ketlik ustoz-shogirdlik asosida tartiblangan. Faqat oxirgi Sodiq va Buzurjmehr hakim yunon hakimlari silsilasiga kiritilmay, ularning Noʻshiravon zamonida yashab oʻtgani aytilgan. Bunda asosiy eʼtibor hakimlarning falsafiy soʻzlariga qaratilgan

bo'lib, ularning dini, kelib chiqishi kabilar to'g'risida ma'lumot berilmaydi, chunki Navoiyni, birinchi navbatda, ularning hakimligi o'ziga jalb etgan. Yunon donishmandlari masalasida ularga nisbat berilayotgan fikrlarning asosi Sharqqa tegishli ekani yoki antik davrga mansublikni saqlab qolgani kabilar ham muhim jihatlardan sanaladi.

Yunon tafakkurining arab ilm-fani va madaniyatiga ta'sirini maxsus o'rgangan D.Gutasning fikricha, arab tilidagi donishnomanavislikni, asosan, uch katta turga ajratish mumkin:

1. Ilmlar mundarijasini aks ettiruvchi asarlar.
2. Shahriyorlar pandnomasi.
3. Adab va hikmat adabiyoti.

Uchinchi turdagi asarlarning sarchashmasi yunon va fors manbalariga borib taqaladi. Ularning yunon manbasini faylasuflarning so'zlari tashkil etadi va ular sharqda "Savon al-hikma" yoki "Muxtor ul-hikam" deb atalgan. Arab tilidagi mazkur ma'rifiy majmualarning forsiy asoslari sosoniylar davridagi pahlaviycha andarnomalar bilan aloqador va ular abbosiylar davrining boshlarida pahlaviydan arabchaga o'girila boshlangan, bunda Ibn Muqaffaning tarjimalari muhim o'rin tutgan. XII asrda fors adabiyotida pandnomanavislik yana alohida yo'nalish sifatida shakllandi, saljuqiylar davrida Iroq va Eronda uchta mashhur pandnoma – Kaykovusning "Qobusnoma"si, Nizomulmulkning "Siyosatnoma"si va G'azzoliyning "Nasihat ul-mulk"i yaratildi. Ular keyingi pandnomalar yaratilishiga bevosita ta'sir o'tkazdi [Gutas encyclopedism, 12].

Bizningcha, oxirgi ikki tur, ayniqsa, hikmat adabiyoti iskandarnomalardagi donishmandlik tasviriga bevosita ta'sir etgan. Bu ta'sirning elementlarini "Iskandarnoma"da ham, "Saddi Iskandariy"da ham kuzatish mumkin. Nizomiy dostonidagi maxsus andarzlar, xiradnomalar va Navoiy dostonidagi alohida hikmat va o'gitlar shundan dalolat beradi. Shubhasiz, har ikki ijodkor o'ziga qadar yaratilgan, turli millatlarga mansub hikmatlarni jamlagan manbalar bilan tanish bo'lgan. Masalan, Navoiy hikmat adabiyotining tipik namunasi "Jovidoni xirad"dan xabardor edi.

Qadimgi Yunonistonda hikmatli so'z ma'nosida "apoftegma" yoki "gnomologiya" (gnomo – hukm, qaror; logiya – ta'limot) atamaları qo'llangan. Donishmandlarning so'zlari va biografiasini saralab, bir joyga to'plagan asarlar esa "doksografiya" (dokso – qarash, tushuncha; grafiya – yozish, chizish) deb yuritilgan. Bu tipning eng qadimiysi Teoprastosning "Tabiatga oid qarashlar" nomli

doksagrafidir [Diogen 2013, 202]. Antik Yunonistonda hikmatli soʻzlar anʼanasi esa Pitagorasning “az-Zahabiyat”i (oltin misralar) bilan boshlanadi [Kaya dergipark, 250]. VIII asrdan boshlanib, X asrning oxiriga qadar davom etgan qadimgi yunon manbalarining arab tiliga tarjimasi jarayonida asarlardagi hikmatli soʻzlar toʻplangan va *al-hikam ul-yunoniya*, *al-uhud ul-yunoniya*, *min hikam ur-rum* kabi nomlar bilan atalgan. Islom olamida bu tipdagi asarlarning dastlabkilaridan biri Hunayn ibn Is’hoqning (vaf. 873) «Navodir ul-falsafa»sidir. Keyinchalik Abulfaraj ibn Hinduning (vaf. 1029) «Al-kalim ul-ruhoniya fil hikam ul-yunoniya», Ibn Miskavayhning (vaf. 1030) «Jovidoni xirad», Mubashshir ibn Fotikning (vaf. 1080) «Muxtor ul-hikam», Ibn Qiftiyning (vaf. 1248) «Axbor ul-ulamo», Shahrizuriyning (vaf. 1288) «Nuzhat ul-arvoh» kabi asarlari ta’lif etildi.

Bular orasidan Miskavayhning «Jovidoni xirad»i va Fotikning «Muxtor ul-hikam»i ancha mashhur. Miskavayh islom davrida «Hushang soʻzlari va hikmatlari» deb atalgan pahlaviy andarzdan koʻplab hikmatlarni saralab olib, shuningdek, arab, hind va yunon hikmatlarini qoʻshib, arabchaga tarjima qilgan va «Jovidoni xirad» («Odob ul-arab va al-furs») nomi ostida jamlagan. Bunda asosiy qism fors va arab hikmatlariga ajratilgan. Navoiyning bu asardan iqtibos keltirishiga qaraganda, u bilan yaqindan tanish boʻlgan [Navoiy 2000, 198]. Mubashshir ibn Fotik esa oʻzidan oldingi barcha manbalarga tayanib, asosan, yunon faylasuflariga tegishli deb qaralgan hikmatlarni toʻplashga intilgan va 20 dan ortiq donishmandga nisbat beriluvchi soʻzlarni jamlagan. Nizomiy va Navoiyning bu manba bilan tanish boʻlganini taxmin etish mumkin, chunki «Iskandarnoma» va «Saddi Iskandariy»da «Muxtor ul-hikam»dagi hikmatlar aynan uchraydi. Navoiyning bu manba bilan tanish boʻlganining yana bir ishorasi «Ravzat us-safo»da mavjud. Ma’lumki, Mirxond «Ravzat us-safo»ni Navoiyning iltimosi va qoʻllab-quvvatlashi ostida yozgan [Сирождиддинов 2011, 210]. U oʻz tarixida tayangan manbalaridan biri Shahrizuriyning (vaf. 1288/1304) «Nuzhat ul-arvoh» asaridir. Oʻz navbatida, «Nuzhat ul-arvoh» «Muxtor ul-hikam»ning kompilyatsiyasidir. Shu bois Fotik asarining Navoiy kutubxonasida mavjud boʻlganini taxmin etish mumkin. Bunga yana bir dalil «Ravzat us-safo»dagi Iskandar tarixining «Muxtor ul-hikam»dagi ma’lumotlar bilan deyarli bir xil ekanidir. E’tiborlisi, Fotik asaridagi ayrim ma’lumotlar qadimgi yunon manbalaridagi ma’lumotlarga muvofiq keladi. Xususan, Arastuga nisbat berilgan ayrim hikmatlar «Nikomax etikasi»da uchraydi [Kaya dergipark, 254]. Masalan, «Muxtor ul-

hikam»ning quyidagi hikmatlari «Nikomax etikasi»da mavjud: 1. Inson yaxshilik nima ekanini bilmoq va axtarmoq mashaqqatiga giriftor; buni yangi bir usul bilan yoki boshqadan o'rganib topadi. Bu ikki prinsip kimda yo'q bo'lsa, shoir Gomerning shu so'ziga quloq tutsin: Yo bu fazilatlidir yoki u ezgudir. O'zi anglamaganini boshqasi anglatsa ham anglamaski... Bunday odam juda yomon falokatga giriftor bo'lmish; 2. Ruhiiy xotirjamlikka yetishish uchun insonning ba'zi tashqi shartlarga ham ehtiyoji bor, chunki moddiy narsalar bo'lmasa, insonning to'la baxtiyor bo'lishi qiyin. Yoki baxtiyor hayot kechirmoq uchun baxtni baham ko'radigan do'stlarga ham ehtiyoj mavjud; 3. Harakatsiz a'zoldan birini o'ngga harakat ettirish uchun boshqasi chapga qimirlagani kabi, lazzat qarshisida o'ziga hokim bo'lmaganlar doim beo'xshov qiliqlar qilishadi [Aristotel 1997, 168; 22; 33]. Ammo ular «Nikomax etikasi»da yuqoridagi kabi siqiq va xulosaviy xarakterda emas, balki matn ichida kelgan. Yana bir mulohaza shuki, milodiy III asrning o'rtalarida yashagan deb taxmin qilinuvchi Diogen Laertiosning «Mashhur faylasuflarning hayoti va o'gitlari» nomli asari «Muxtor ul-hikam»ga asos bo'lgan manbalardan biri bo'lishi kerak. Chunki bu asardagi Suqrot biografiyasiga oid ko'pgina ma'lumotlar, ayrim hikmatli so'zlar Fotik asarida aynan keladi. Masalan, «Muxtor ul-hikam»da zohid Suqrot tilidan quyidagi hikmat keltirilgan: Zamondoshlaringdan qaysi yo'l bilan ustun kelding va butunlay sog'lom qolding deya so'rashganda Suqrot shunday javob berdi: men yashash uchun yeyman, siz esa yemoq uchun yashaysiz [Fatik 2013, 186]. Diogen Laertios ham III asrda ayni shu hikmatni Suqrot tilidan keltirgan [Diogen 2013, 78]. Qayd etish kerakki, hikmatli so'zlar milodning boshlaridayoq sayyor xarakter kasb etib ulgurgan. Xususan, Diogen Laertios o'z asarida Suqrot tilidan keltirilgan ayrim hikmatlarni ba'zilar Anaksagorga ham nisbat berishini aytadi [Diogen 2013, 78].

Hikmat adabiyotida yunon hakimlariga tegishli fikrlarning aksariyati keyinchalik ham ularga nisbat berilgan. Masalan, F.Sulaymonova Iskandar tomonidan onasiga yozilgan nomada aks etgan azani qattiq tutmaslik, taomga hech kimi o'lmagan odamgina qo'l uzatishi mumkinligi haqidagi motivlar Demokrit hayoti va uning atom nazariyasi bilan bog'liq ekanini asoslab bergan [Сулаймонова 1984, 61]. Ularda qadimgi hind, fors, yunon va musulmon xalqlar dunyoqarashining izlari, sintezlashish jarayonini kuzatish mumkin. Arab tilidagi bunday manbalarda so'fiyona dunyoqarashning ham kuchli ta'siri seziladi. Bu tendensiya aksariyat hikmat adabiyoti kitobat qilingan X – XIII asrlarda Sharqda tasavvufning keng yoyilgani

bilan izohlanadi. Mazkur hikmatlar islomiy dunyoqarashga muvofiq deb qaralishdan tashqari, unga xizmat qiladi deb hisoblangan. Ularni yozishdan maqsad ham insonlarni ma'naviy kamolotga yetkazish bo'lgan [Fatik 2013, 28].

Shu tariqa, ideallik qonuniyati asosida qadimgi yunon donishmandlari afsonaviy qiyofa kasb etib borgan, turli xalqlar, jumladan, musulmonlar tafakkuri mahsuli bo'lgan qarashlar ham ularga nisbat berila boshlangan. Natijada ular xamsanavislikka musulmon qiyofaga ega obrazlar sifatida kirib keldi, ya'ni Navoiy va Nizomiyga qadar yunon donishmandlari haqidagi tasavvurlar islomiy tus olib ulgurgan. Shu bois, Nizomiy va Navoiyning bu obrazlarga doir talqinlari asosini Sharq manbalari, xususan, forsiy andazlar va arab hikmat adabiyotidan qidirish mantiqli. Farididdin Attor kabi ayrim klassiklarning yunon falsafasiga salbiy munosabatini esa butun yunon falsafasiga emas, balki insoniyatni chalg'ituvchi falsafiy oqimlarga qarshi qaratilgan deb tushunish maqsadga muvofiq [Xaqqulov 2012, 6].

O'zgarishlarga qaramay, sharqdagi manbalar, xususan, Navoiy ijodida ham aslida yunon donishmandlariga tegishli bo'lgan falsafiy fikrlar saqlanib qolgan. Masalan, «Saddi Iskandariy»ga bevosita aloqador bo'lgan Luqmon obrazi bilan bog'liq holat buni isbotlaydi. Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo»da Luqmon to'g'risida bir necha ma'lumot va quyidagi rivoyatni keltiradi: «Biri bukim, xojasi bir rud qirog'inda birov bila nard o'ynadi, bu shart bilakim, mag'lub bo'lg'on bu rud suyini tamom ichgay yo molin bergay. Va Luqmonning xojasi utkuzdi. Harif rudxona suyini tamom ichmak taklif qildi. Va ul mutahayyir bo'ldi. Luqmon dedikim, shart qiladurg'on vaqtdag'i suvni hozir qil yo g'arazing bu hozir suv bo'lg'on bo'lsa, rudning bu qirog'indag'i suvni ichkuncha nori qirog'indag'i suvni turg'uz. Harif bu ishdin ojiz bo'ldi. Xojasi xalos topib, Luqmonni ozod qildi» [Navoiy 2000, 121-122]. Bu syujet yunon manbalarida Ezop nomli dono qul hayotida yuz bergan deb qaraluvchi mashhur voqeaning deyarli takrori [Gasporova 1968, 38 - 41].

Bu holat shuni ko'rsatmoqdaki, Ezop biografiyasi bilan bog'liq voqea (mil.av. VI asr) Sharq tillariga tarjima qilinib, noma'lum manbalar orqali keng yoyilgan va Navoiy ijodiga ham o'tgan. Asl matndagi asosiy nuqtalar va mazmun saqlanib qolgani holda, Sharq manbalarida tafsilotlar xiralashib ketgan. Bu shu darajaga borib yetganki, Ezop butunlay tushib qolib, voqea Luqmonga nisbat berila boshlangan. Darvoqe, Navoiy Luqmonni qora rangli qul va

juda ko'p g'aroyib gaplari bor degani kabi, Ezop ham badbashara, biroq favqulodda iste'dodga ega qul bo'lgan. Shuningdek, Navoiy har bir hakim haqida so'z boshlashdan avval kimning shogirdi ekani to'g'risida so'zlaydi. 13 hakimdan, dastlab, Luqmon haqida ma'lumot beradi, shu bois, uning ustozini to'g'risida hech narsa demaydi, lekin Luqmondan so'ng Fishog'urs (Pifagor) xususida so'zlar ekan, Luqmonning shogirdi deydi. Jomosp ham Luqmonning shogirdi bo'lib, Buqrot Fishog'ursning shogirdi va hokazo. E'tiborlisi, biz bilgan yunon hakimlarining barchasi ustoz-shogirdlik silsilasiga ko'ra Luqmonga borib taqaladi, shogirdlar esa yunonlar. Bu Navoiy tuzgan xronologiya emas, ungacha hakimlar tarixiy asarlarda xuddi shu tartibda bayon qilingan, xususan, «Tarixi anbiyo va hukamo»dagi hakimlar zikri «Tarixi Guzida»dagi hukamolar zikriga uyg'un. Navoiy keltirgan xronologiyada hakimlar yashagan davrlarga oid tarixiy haqiqat bilan katta yaqinligi bor, masalan, antik falsafa tarixida avval Pifagor, so'ngra Gippokrat, Sokrat, Platon, Aristotel yashab o'tgani va Platon Suqrotning, Aristotel esa Platonning shogirdi bo'lgan.

Masalaning ikkinchi bir jihati shuki, mazkur faylasuflar Navoiy ijodida o'rni bilan donishmandlikning, har ishga qodirlikning ramzi bo'lgan umumlashma xarakteridagi afsonaviy obrazlarga aylanib turadi yoki nom yunoncha (aslida nom ham sharqlashib ketadi: Gippokrat – Buqrot kabi) bo'lsa-da, mohiyat mutlaqo islomiylik ketadi, masalan, Jomiy va Navoiyning Iskandar haqidagi asarlarida ana shu hol ustuvorlik kasb etgan. Nizomiy va Navoiy iskandarnomalardagi yunon hakimlari obraz sifatida badiiy koloritga ega bo'lish bilan birga, o'z prototiplariga ham ega.

«Iskandarnoma» va «Saddi Iskandariy»da tasvirlangan yunon hakimlari obrazi tilidan aytilgan fikrlarning ayrimlari muallifga tegishli ekani rost. Masalan, I.Sulton «Saddi Iskandariy»dagi Doroning Iskandarga qarshi qo'shin tortishi epizodidan so'ng keluvchi uch ilova, xususan, «Hikmat»dagi savol-javob Iskandar va Arastu o'rtasida bo'lishiga qaramay, Navoiy va Abusaid munosabatlariga daxldor ekanini manbalar bilan asoslab bergan [Султон 2010, 168-173]. Yoki «Saddi Iskandariy»dagi birinchi hikmatda Iskandar va Arastuning savol-javobi mutlaqo so'fiyona dunyoqarashga tayangan, buni Navoiyga nisbat berish ham mumkin. Bu fikrning Arastu va Iskandarga tegishli emasligi aniq bo'lsa-da, u Navoiydan oldinroq ularga nisbat berilgan bo'lishi, shu bois Navoiy shunday yo'l tutgan bo'lishi ham ehtimol.

Faylasuflar tilidan aytilgan ayrim fikrlar haqiqatda ularga

tegishli bo'lishi yoki tarixda shu kabi fikr mavjud bo'lishi, faqat muallif uni boshqa bir hakimga nisbat berishi ham mumkin. Yunon hakimlari tilidan aytilgan fikrlarni muallifga tegishli degan tasavvurni mutlaqlashtirish, o'z navbatida, yunon hakimlari obrazining mutlaqo ramziy-majoziy obraz sifatida talqin etilishiga olib keladi. Holbuki, donishmandlar tilidan aytilgan fikrlarning barchasi ham muallifga tegishli emas, ayniqsa, Iskandar bilan bog'liq tarixiy mavzudagi asarlarda bunday fikrlash mantiqli. Masalan, tarixda Diogen va Iskandar o'rtasida bo'lib o'tgan oftob bilan bog'liq suhbatni Nizomiy Suqrot va Iskandarga, Xusrav Aflotun va Iskandarga, Jomiy Suqrot va Iskandarga, Attor xuddi shu mazmundagi voqeani shoh va gadoga nisbat beradi. Birinchidan, bu tarixiy voqea bo'lib, unda Suqrot tilidan aytilgan fikrlar Nizomiyga tegishli emas, garchi undagi asosiy fikr sharqda asrlar osha to'lishib borgan bo'lsa-da, bu to'ldirishlar ham faqat Nizomiyga tegishli emas. Masalan, Nizomiyga qadar mazkur epizodning antik tarixga muvofiq keluvchi Diogen bilan bog'liq varianti «Muxtor ul-hikam»da mavjud edi [Fatik 2013, 144], biroq u sayyor xarakter kasb etib, shu asarning o'zida Suqrotga ham nisbat berilgan [Fatik 2013, 230]. Farq shundaki, Diogenga aloqador voqea Iskandar bilan, Suqrotga aloqador voqea esa zamonning shohi (ismi noma'lum) bilan yuz beradi, lekin xamsanavislar nima uchundir Diogenning o'rnini Suqrot bilan almashtirishgan. Sharqda biror ajoyib yoki chuqur ma'noli fikr, ibratli voqea-hodisaga munosabatda, ko'pincha, kim aytgani, qachon ro'y bergani kabi dalillarga kam e'tibor qaratilib, asosan, uning mazmun-mohiyatiga diqqat qilish ustuvor. Shu bois, biror ajoyib fikrni ba'zi ijodkorlar muayyan kishilarga, aytaylik, o'zi uchun donishmandlik ramzi bo'lgan shaxslarga nisbat bersa, ba'zi ijodkorlar fikrning muallifini qayd etmay ham qo'yavergan.

Sharqlik ijod ahli uchun biror olamshumul fikrning o'zi ko'proq ahamiyat kasb etgan, natijada biror fikr davrlar o'tishi bilan shunday fikr ayta oladi deb tasavvur etilgan mutafakkirlar yoki o'zining tarixiy ildizidan uzilib donishmandlik timsoliga aylangan obrazlarga nisbat berila boshlangan, ya'ni fikr sayyorlik kasb etgan.

Aytish mumkinki, Nizomiy tarixni juda yaxshi bilgan, Suqrotning Iskandar bilan zamondosh bo'lmaganidan xabardor edi, shunday bo'lsa-da, dostonida Suqrot va Iskandarni zamondosh qilib tasvirlaydi. Chunki Nizomiy aksariyat sharqlik ijodkorlar kabi Suqrotni donishmandlik va zohidlik timsoli deb bilgan, shu bois bu kabi chuqur ma'noli fikrni ongli ravishda Suqrotga nisbat berishni ma'qul ko'radi. Bunda u uchun Suqrot va Iskandarning zamondosh

emasligiga doir mantiqsizlikdan ko'ra bu fikrning aytilishi, Iskandarga nisbatan aytilgani va Suqrotning aytishi muhimroq. Birinchidan, Nizomiy shunday ajoyib fikrni o'z dostoniga kiritishni istagan, ikkinchidan, bu ibratli fikrlar va voqealar haqiqatan Iskandar bilan yuz bergan, uchinchidan, bu zohidona fikrning Sharqda zohidlik timsoli bo'lgan Suqrot tilidan keltirish fikrni nisbatan e'tiborli qilardi.

Tarixan Ezopga nisbat beriluvchi hikmatlarning keyinchalik Sharqda donishmandlik ramzi bo'lgan Luqmonga nisbat berilishi ham xuddi shu qonuniyat asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Masalan, «Tarixi Guzida»da Arastuning hikmatli so'zi sifatida keltirilgan shohning ulkan daryo va arkoni davlatning anhorlar ekani haqidagi fikr Navoiy tomonidan «Tarixi anbiyo va hukamo»da ham Arastuga nisbat beriladi, ammo «Mahbub ul-qulub»da bu fikr umuman hukamoga nisbat berilib (10-faslda), muallifi aniq ko'rsatilmaydi. Bu qonuniyat tarixiy nuqtayi nazardan yanglish ko'rinsa-da, mohiyatan yanglish emas edi, mana shuning uchun ham zohirdan botinni ustun deb biluvchi sharqlik ijodkorlar g'aroyib fikrlarni o'zlari donishmandlik timsoli deb bilgan shaxslarga nisbat berishdan cho'chishmagan.

Sharqda maxsus xiradnoma, pandnoma va andarzlar yozish an'anasi bo'lgan, ularda muayyan fikrlar yunon donishmandlariga nisbat berila boshlangan. Bu, asosan, yunon donishmandlari asarlarini sharq tillariga tarjima qilish va ularning sharqda donishmand sifatida shuhrat qozongan IX – XI asrlarga to'g'ri keladi. Shu bois, Nizomiy va Navoiy kabi ayrim ijodkorlar bu asarlardagi fikrlarni tarixiy haqiqat sifatida qabul qilib, ularni o'z asarlariga kiritgan. Masalan, «Saddi Iskandariy»dagi birinchi hikoyat qahramoni darveshga Sharqda mashhur Ibrohim Adham obraziga yaqinlik mavjud. Turkiy adabiyotda ilk bor «Qutadg'u bilig»da uchrovchi Ibrohim Adham va uning taxtdan bosh tortishi bilan bog'liq syujet genezisi, Y.E.Bertelsning qayd etishicha, Budda haqidagi afsonalarga borib taqaladi [Бертельс 1965, 181 – 187].

Bizningcha, «Saddi Iskandariy»dagi hikoyat hikmat adabiyoti va pandnomalar ta'sirida shakllangan. Hikoyatdagi asosiy masala «Muxtor ul-hikam»da Arastuning fikri sifatida uchraydi: tunganmas boyluk, so'ngsiz hayot, zavol bilmas hukmronlik va o'zgarimas abadiyat talab etish [Fatik 2013, 364]. Ammo bu yerda hikoyatdagi bosh chanoqlar detali yo'q, bizningcha, keyinchalik sharqda mazkur hikmatning qayta ishlanishi natijasida bu detal bilan boyitilgan. Misol uchun, Nizomiy va Jomiy iskandarnoma-

larida jiddiy e'tibor qaratilgan utopik jamiyat haqidagi syujet G'azzoliy ijodida ham uchraydi, faqat unda ikki bosh suyagi detali ham mavjud [G'azzoliy 1317 (h.), 37 – 39].

Keyinchalik to'rt istak va bosh chanog'iga doir fikrlar qo'shib, «Saddi Iskandariy»dagi hikoyat yuzaga kelgan. G'azzoliy bilan zamondosh bo'lgan Turtushiyning «Siroj ul-muluk» asarida bu hikoyaning fabulasi Navoiy tasvirlaganidek, shakllanib bo'lgan edi [Bertels 1965, 306]. E'tiborlisi, Navoiy nisbatan qadimiyroq bo'lgan to'rt shartga asoslangan hikoyani tanlab olgan, faqat Fotikdagi to'rt shartdan biri bo'lgan «zavol bilmas hukmronlik» Navoiyda «g'ami yo'q shodlik» bilan almashgan. Bu syujet Navoiy davrida ham qayta ishlab, to'ldirilib borilgan, masalan, «Ravzat us-safo»da xuddi shu syujet bor, ammo bunda Iskandarga oltita shart qo'yiladi [Mirxond 1338 (h.), 663]. Mirxondda Navoiydagi to'rt shartga «mahbubi bemakruh» va «buzilmas sihat» haqidagi yangi ikkita shart ham qo'shilgan. Shu tariqa, aslida, ixcham shakl va mazmunga ega bo'lgan syujet davrlar o'tishi bilan ham shaklan, ham mazmunan boyib borish orqali yashab qolavergan.

Nizomiy «Iqbolnoma»da yetti yunon donishmand tilidan keltirgan metafizik qarashlar ham, aslida, qadimiy manbalarga tayanadi. Falsafa tarixidan ma'lumki, yunon falsafasining VII – V asrlarida «olam asosida nima turadi» degan savol bosh masalasi edi. Bundan keyin keluvchi klassik davr (V asr o'rtalari – IV asr oxirlari) vakillaridan bo'lgan Suqrot, Platon va Aristotellar ham bu muammoga munosabat bildirgan. Masalan, Fales olamning eng umumiy asosida suv (suyuqlik), Anaksimander apeyron (cheksizlik), Anaksimender havo, Gippon namlik, Geraklit olov, Pifogor son, Empedokl «to'rt o'zak» (olov, havo, suv va tuproq), Anaksagor urug', Suqrot ilohiy kuch, Platon g'oya, Aristotel 5 element (efir, olov, havo, suv va tuproq), Demokrit va Epikur atom, stoiklar esa olov turadi deb hisoblashgan. Nizomiy dostonidagi yetti hakim tilidan bayon qilingan kosmogonik qarashlar ham yuqoridagi qarashlari bilan bevosita aloqador, xususan, Arastu bayon qilgan ofarinish haqidagi fikrlar falsafa tarixida unga nisbat beriluvchi «ilk turtki» haqidagi fikrlarga mos keladi. Dostonda olam substansiyasini Volis suv, Balinos tuproq, Suqrot Xudo (ya'ni ilohiy kuch), Farfurius javhar (namlik bo'lsa kerak), Aflotun mohiyat (g'oya), Nizomiyning o'zi esa aql ekanini aytadi. Ko'rinib turibdiki, Nizomiy dostonida tasvirlagan Iskandar va yetti hakimning suhbatidagi metafizik va kosmogonik qarashlar antik yunon falsafasi bilan bevosita bog'liq. Mana shu kabi tarixiy asosga ega fikrlar dostonida u yoki bu hakimga

nisbat beriladi, bu – o‘sha fikrning tarixda mavjudligi, uni yunon donishmandlari tilidan aytilgani va Nizomiyga bilvosita daxldorligini anglatadi. Nizomiyning aynan qaysi manbalarga tayanganini aytish qiyin, chunki ijodkor ularning nomini qayd etgan emas. Shunday bo‘lsa-da, iskandarnomalarda yunon hakimlari tilidan aytilgan fikrlarni nisbat berishda shoshmaslik, osongina muallifga nisbat berish orqali ijodkor ko‘zda tutgan maqsadni yo‘qqa chiqarish, yanglish talqinga yo‘l ochishdan ko‘ra, hodisaning adabiy-tarixiy ildizlarini aniqlash va asarga nima maqsadda olib kirilganini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Nizomiy Firdavsiyning donishmandlarga oid ishlarini kengaytirishga harakat qilgan va yunon hakimlaridan faqat Arastuni emas, balki yetti hakim obrazini asarga jalb etib, faol qahramonga aylantirgan. Nizomiy dostonidagi eng faol yunon hakimlari obrazi Arastu va Balinos. Arastu dostonida Iskandarning hamdarsi bo‘lib, ular birgalikda Arastuning otasi Naqumohisdan tarbiya oladi. Naqumohis mana shu jarayonda Iskandar bilan keyinchalik shoh bo‘lganda Arastuni o‘ziga vazir etishi va uning so‘zlari bilan davlatni boshqarishi borasida ahdlashadi. Mana shundan boshlab Arastu va Iskandarning taqdiri birga kechadi, Iskandar taxtga o‘tirgach, Arastu vazir sifatida tayinlanadi.

Nizomiy uchun «Iskandarnoma»da Iskandarning donishmandligi tasviri asosiy maqsadlardan biri edi. Iskandar va yunon donishmandlari munosabati tasviriga berilgan urg‘u shu niyat natijasi. «Sharafnoma»da Iskandar va hakimlar munosabati jiddiy masalalarda faylasuflar bilan kengashish, vaziri Arastu bilan maslahat, buning natijasida zangiylar va forslarning taslim etilishi kabilarda ko‘zga tashlanadi [Ganjaviy 2012, 74, 146, 77, 79, 172 – 173]. Biroq tom ma‘nodagi Iskandar donishmandligi va hakimlar obrazi «Iqbolnoma»da namoyon bo‘ladi. Iskandar huzuridagi faylasuflar bahsi, Aflotunning ilmiy kashfiyoti, Iskandar bilan hind donishmandining savol-javobi, Iskandarning yetti hakim bilan xilvatda olamning asosi haqidagi suhbat, Arastu, Aflotun va Suqrotning Iskandar uchun maxsus yo‘riqnoma bitishi kabilar shundan dalolat. Ammo bularning barchasi Nizomiy tomonidan Iskandarning donishmand sifatidagi kamolotini tasvirlash, bu orqali payg‘ambarlikka yetishishini amaliy asoslash uchun qaratilgan bo‘lib, bunda donishmandlar obrazi tasviri asosiy maqsad emas. Nizomiy dostonida yunon hakimlari obrazi mushkul vaziyatlarda oqilona qarorlari bilan shohga yo‘l ko‘rsatuvchi, ilmning jamiyatda tutgan o‘rni, mamlakat taqdiriga ta‘sirini namoyon etish vazifasini

bajaruvchi obraz qiyofasida namoyon bo'ladi.

Navoiy ham «Saddi Iskandariy»da yunon donishmandlari obrazi tasviriga katta e'tibor qaratgan. U Nizomiydan farqli o'laroq Iskandar huzurida muntazam 400 donishmand bo'lganini aniq qayd etadi. Navoiy ham Iskandar obraziga xos donishmandlik fazilatini tasvirlashni maqsad qilgan, lekin uning ifodasi o'ziga xos. Navoiy Iskandar donishmandligini tasvirlash uchun voqealar rivojining muayyan o'rnini maxsus ajratmaydi, shoir tasavvuridagi Iskandarning faoliyati donishmandlik fazilati asosiga qurilgan. Nizomiy ham Iskandarning donishmandligi tasvirini maqsad qilsada, bunda u ko'proq Iskandarning faylasuflar bilan munosabatiga e'tibor qaratadi, Iskandarning shaxsiy qobiliyati, tug'ma iqtidoriga jiddiy urg'u bermaydi. Nizomiyga ko'ra, Iskandar dunyoqarashining asosi u dunyoni egallab bo'lganidan so'ng, payg'ambarlik safaridan oldin yunon hakimlari bilan bo'lgan suhbatlarda shakllanadi. Navoiy esa Iskandarning yoshligi tasviridan boshlab tabiiy iqtidoriga katta e'tibor qaratadi. Masalan, Navoiy ilm bobida «ayn ul-yaqin» darajadagi Naqumohisdan ta'lim olgan Iskandarning salohiyati to'g'risida shunday deydi:

Bori ishda bir yerga yetti ishi

Ki, mumkin emas andoq o'lmoq kishi [Navoiy 1993, 93].

Dunyoga jahongirlik tasvirida ham Iskandar yunon faylasuflari singari o'zni bilan donishmand qiyofasida namoyon bo'ladi. Navoiyga ko'ra, uning taxtga, dunyoga munosabati, Doro va boshqa shohlar bilan muloqoti, oyna va usturlobning ixtiro etilishi, sadning qurilishi kabi muhim ishlarda, avvalo, Iskandarning oqilligi muhim rol o'ynagan. O'z navbatida, Navoiy Iskandar donishmandligi asosi, ya'ni o'qib-o'rganishning qay tarzda amalga oshganiga ham jiddiy e'tibor qaratgan va ayni mana shu maqsad taqozosi bilan to'rt qismli asosiy boblarning to'rtinchi qismiga Iskandar va yunon hakimlarining savol-javoblarini muntazam tarkibiy qism sifatida joylashtirgan. Voqealar rivojining boshidan oxiriga qadar muntazamlik kasb etgan bu qism Iskandarning umr bo'yi o'rganishdan to'xtamaganini ta'kidlash uchun zarur edi.

Nizomiydan farqli o'laroq, Navoiy Arastuning Iskandar bilan butun faoliyati davomida birga bo'lganiga urg'u beradi. Arastuning Iskandar vaziri bo'lganiga doir tarixiy haqiqatga tayanib, Iskandarning quruqlikdagi safari tasviri davomida «Hikmat»larda Iskandar va Arastuning muayyan masalaga oid savol-javoblarini keltirib boradi. Iskandarning ikkinchi, ya'ni dengiz safariga esa Suqrot boshchilik qiladi hamda «Hikmat»da ham Iskandarning Suqrot bilan savol-

javoblari keltiriladi. Navoiy Suqrot obrazi bilan bog'liq anaxronizm qo'llagan, ya'ni u Suqrotning Iskandardan oldin yashab o'tganini bila turib, dostonida Iskandar bilan zamondosh qilib tasvirleydi. Bu holat Suqrot Navoiy uchun donishmandlik, kamolot timsoli ekanini yana bir bor tasdiqlaydi, chunki Arastu Iskandar bilan birga bo'lsa-da, dengiz ilmi g'oyat murakkab bo'lgani bois, hakimlar bu borada «hikmat ahlining ustodi» bo'lgan Suqrot fikrlariga quloq tutish va bu yo'lda uning rahnamo bo'lgani, yaxshiligini e'tirof etishadi. Ikkinchi safarga aynan Suqrotning bosh bo'lishi, bu safarning dengizga ekani, safar so'ngida Iskandarning kamolot hosil qilishi va Iskandar qalbining cheksiz riyozatlar davomida poklanishi tufayli dengiz tubidagi butun sir-sinoatni pardasiz ko'ra olishi beixtiyor «Farhod va Shirin»dagi Suqrot obrazi bilan bog'liq talqinlarni yodga soladi.

Xulosa

Yunon donishmandlari «Saddi Iskandariy»dagi voqealar rivojining, asosan, sirli-sehrli, ajoyibotlar bilan bog'liq o'rinlarida ko'zga tashlanadi. Masalan, tilsimlangan Kashmir qal'asini fath etish va Malluning o't va yelni band etishiga qarshi chora ko'rish ishlari bevosita donishmandlar maslahati va ishtirokida hal etiladi. Bunday o'rinlarda hakimlarning turli ilmiy kashfiyotlar, jumladan, dinamit singari portlovchi moslama, oyinayi jahannamo va osmon sirlaridan xabar beruvchi usturlob ixtiro etishlari ham keng tasvirlanadi. Navoiy shu tariqa Iskandar va yunon donishmandlari munosabati orqali ilmu hikmatning jamiyat va butun insoniyat uchun nechog'lik zarurat ekanini ham ko'rsatib beradi.

Nizomiydan Navoiyga «yetti hakim» motivi, ya'ni barcha donishmandlar orasidagi eng bilimdon yetti hakim obrazi ham o'tgan. Nizomiy yetti hakim sifatida Arastu, Volis, Balinos, Suqrot, Farfurius, Hirmis va Aflotunni ko'rsatsa, Navoiy Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfunyus va Arastuni tilga oladi. Navoiyda Volis o'rniga Buqrot obrazi kiritilgan. Nizomiy yetti hakim jamoasini Iskandarning yaqinlari va maslakdoshlari sifatida tasvirlagan. Navoiy dostonida yetti hakim obrazi ikki o'rinda yaxlit jamoa sifatida tasvirlangan, biri, Iskandar vafoti munosabati bilan onasiga ta'ziya paytida, ikkinchisi, xotimada shahzoda Muzaffar Husaynga nasihat bahonasida. Ta'ziyaga kelgan yetti hakim Nizomiy dostonidagi yetti hakim jamoasi bilan, xotimadagi yetti hakim jamoasi esa Jomiy dostonidagi yetti hakim bilan bir xil. Ta'ziyaga kelgan yetti donishmand obrazi yoki umuman «yetti donishmand» motivi garchi Nizomiydan Navoiyga o'tgan bo'lsa ham, Navoiy

ularga Nizomiyda uchramaydigan yangi badiiy vazifa yuklagan, aniqroq qilib aytganda, Navoiy salafining bu boradagi ishlarini takomillashtirgan.

«Yetti hakim» motivi Nizomiydan oldin ham manbalarda mavjud edi. «Miloddan avvalgi VII asrlardan boshlab yunonlar orasida «hukamoyi sab'a» yoki «xiradmandoni haftgona» deb ataluvchi ba'zi donishmandlar tilga tusha boshlagan. Ularning nomi quyidagicha edi: Tales de milet, Solon, Pittacus, Bias, Chilon, Myson, Clebule. Bularning dastlabki to'rt nafarini barcha «yetti hakim» toifasidan hisoblaydi, ammo oxirgi uch nafari borasida ixtilof bor. Ko'pchilik Periander nomini, ba'zilar Anacharsis nomini Myson o'rnida qayd etadilar, qolganlar borasida ham juda ko'p ixtiloflar bor (ba'zilar «hukamoyi sab'a»ni besh nafar deb biladi va Fishog'urs, Suqrot, Aflotun, Arastularni ular jumlasidan hisoblashadi)» [Safaviy 1364 (h.), 205]. Nizomiy va Navoiy iskandarnomalarida qayd etilgan «yetti hakim» yuqoridagi «hukamoyi sab'a»ning o'zgarishga uchragan varianti degan qat'iy hukmni aytish qiyin, biroq iskandarnomalardagi «yetti hakim» motivining ular bilan aloqador ekani ehtimoldan yiroqmas.

Nizomiy Iskandar vafotidan so'ng yetti hakimning ham vafot etganini alohida-alohida tasvirlaydi va ularning o'lim arafasida dunyo, hayotning mohiyati haqidagi falsafiy xulosalarni bayon qilish orqali o'zi maqsad qilgan fikrlarni ifodalashdan tashqari, asarning nazariy va amaliy salmog'ini oshirishni ko'zda tutadi. Bunday fikrlarning aynan o'lim arafasida aytilishi esa ularning ta'sir kuchini yanada oshirgan.

Navoiy biroz o'zgacha yo'l tutgan, u yetti hakim vafotini tasvirlashdan ko'ra ularning shoh onasiga hikmatli ta'ziyalar bildirishini maqsadga muvofiq ko'radi. Bu Navoiyning badiiy mantiq yaratishda hayot mantig'ini inobatga olishini yana bir bor isbotlaydi. Donishmandlarning ta'ziya bildirishi epizodi Firdavsiy va Jomiyda mavjud, biroq Nizomiyda yo'q. Firdavsiy dostonida Arastu boshliq 18 hakimning ta'ziyasi qisqa-qisqa bayon qilsa, Jomiy Nizomiy va Navoiy singari 7 hakim xiradnomasini keltirgan bo'lsa ham, Iskandar vafotidan keyin 10 hakim nudbasi hamda 5 hakim ta'ziyasini keltirgan, biroq Firdavsiy kabi ularning ismini qayd etmaydi. Ta'ziya mualliflari ismini qayd etmaslik holati va shunga o'xshash hikmatlar «Ravzat us-safo» [Mirxond 1338 (h.), 666 - 667] va «Muruj al-zahab»da [Mas'udiy 1374 (h.), 283 - 285] uchraydi. Demak, Navoiy yetti hakim obrazi borasida ham salafllari ishlarini yaxlitlab, o'ziga xoslik namoyon etishni ma'qul ko'rgan.

Navoiy syujetidagi yetti hakim ta'zijasida Nizomiy yetti hakim tilidan o'lim arafasida ifodalagan olamshumul fikrlar aks etmagandek tuyulsa-da, Navoiy salafi ko'zda tutgan bu maqsadga ham ijodiy yondashgan. Nizomiy yetti hakim so'zlarini syujet tarkibida bersa, Navoiy xuddi shunday purhikmat fikrlarni xotimaga o'tkazgan. Nizomiy dostonida yetti hakim fikrlari yonidagi birodarlari iltimosi bilan aytiladi, garchi bu fikrlar asarga muallif istagi bilan kiritilgan bo'lsa-da, Nizomiy o'zini alohida ta'kidlagan emas. Navoiy esa yetti hakim xiradnomasini aniq shaxs (shahzoda) ga yo'naltirish, ularni davr muammolari bilan konkret aloqalantirish va bunda o'zining shaxsiy rag'batini ta'kidlashdan cho'chimaydi.

Navoiy tomonidan faylasuflar tilidan keltirgan mazkur fikrlarning manbasi noma'lum. Bu fikrlarning aksariyati sharqona va islomga xos tafakkur mahsuli bo'lsa ham, biz bilmagan manbalardan olinganini aytish mumkin. Beruniy «Hindiston» asarida Arastuning brahmanlar bergan savollarga qaytargan javoblari to'plangan risola mavjudligi, undagi savollarni Iskandar Arastuga yuborganini aytadi. Beruniy ana o'sha risoladan bir necha iqtibos ham keltiradi [Беруний 1965, 105, 184].

Xulosa shuki, Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy dostonlaridagi yunon hakimlari obrazining badiiy funksiyasi bosh qahramon Iskandarning ilmga bo'lgan e'tibori, uning fozilligini hamda ahli donishga e'tibor, ular tufayli mamlakat rivoj topishi, ilmning ahamiyatini ko'rsatib berishdan iborat. Har ikki ijodkor bu obrazlar tasviriga ayricha e'tibor qaratgan bo'lsa ham, umumiy maqsadlari mushtarak. Navoiy va Nizomiy, birinchi navbatda, ularning hakimligi o'ziga jalb etgan, shu bois ularning dini, etnik kelib chiqishi, hatto yashagan davri kabi jihatlarga katta e'tibor qaratishmagan.

Adabiyotlar

- Аристотель. 1997. *Никомахова этика*. Переводчик(и): Брагинская Нина В. Москва: «Издательство «ЭКМО-Пресс».
- Avci, İ. 2012. "Tezahürü'l-Felasife: Anadolu Sahası İskendernamelerine göre Aristo, Eflatun, Sokrat, Bukrat". *Uluslararası türk dili ve edebiyeti öğrenci kongresi*, 175-188. Tudok.
- Bassnet, S. 1995. *Comparative Literature: A Critical Introduction*. Oxford UK & Cambridge USA: Blackwell.
- Бертельс, Е.Э. 1965. *Избранные труды. Том 3. Суфизм и суфийская литература*. Москва: Наука.
- Бертельс, Е.Э. 1965. *Избранные труды. Том 4. Навои и Джамии*. Москва: Наука.
- Беруний, Абу Райхон. 1965. *Ҳиндистон*. Асарлар. Беш томлик. Т.2.

Тошкент: Фан.

- Diogen, Laertios. 2013. *Ünlü Filozofların Yaşamları ve Öğretileri*. Çeviren: Candan Şentuna. İstanbul: Şubat.
- Enginün, İnci. 2011. *Mukayeseli edebiyat*. İstanbul: Dergâh yayinlari.
- Fâtik, Mübeşşir ibn. 2013. *Muhtaru'l-hikem ve mehasinu'l-kelim*. Çeviren: O.Güman. İstanbul: Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı.
- Ганчавӣ, Н. 2012. *Хамса: Искандарнома*. Душанбе: Адиб.
- Гаспорова, М. 1968. *Басни Эзона*. Москва: Наука.
- Gutas, D. *The Greek and Persian background of Early Arabic Encyclopedism*. Саййид Маҳдий таржимаси // <http://www.ettelaathekmatvamarefat.com/new/index>. (12.04.2018)
- Исмаилов, И. (2023). Nizomiy va Navoiy: bir mavzuning turfa talqini. *Ўзбекистан: язык и культура. Литературоведение*, 1(1), 18-32.
- Ismoilov, I. (2021). "Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar". *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 2(2).
- Ҳаққулов, И. 2012. "Навоий ва юнон фалсафаси". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 3-8.
- Кауа, М. *Muhtaru'l-Hikem ve Mahasinu'l-Kelim'de Aristo-telese isnad edilen hikmetli sözler ve bunların kaynakları*. // <http://dergipark.gov.tr/download/article-file/14385> (14.04.2018)
- Кошғарий, Маҳмуд. 1961. *Девону луғотит турк. III томлик. II том*. Тошкент: Фан.
- Краткий словарь мифологии и древностей. 1894. М.Крош. Санкт-Петербург: издание А.С.Суворина.
- Mas'udiy, Ali bin Al-Husayn. 1374 (h.). *Muruj al-zahab*. Tarjo'mayi Abulqosim Poyande. J. 1. Tehron: Shirkati intishoroti ilmiy va farhangiy.
- Mirxond, Muhammad bin Xovandshoh. 1338 (h.). *Ravzat us-safo*. J.1. Theron: Piruz.
- Навоий, А. 1993. *МАТ. 20 томлик. Т.11*. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 2000. *МАТ. 20 томлик. Т.16*. Тошкент: Фан.
- Safaviy, Sayyid Hasan. 1364 (h.). *Iskandar va adabiyoti Eron*. Tehron: Amiri Kabir.
- Сирожиддинов, Ш. 2011. *Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили*. Тошкент: Akademnashr.
- Сирожиддинов, Ш. 2011. *Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Сулаймонова, Ф. 1984. "Садди Искандарий"нинг юнон манбалари". *Адабий мерос* 2: 60-62.
- Султон, И. 2010. *Навоийнинг қалб дафтари*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Зоҳидов, В. 1968. *Навоий дунёқарашининг асосий манбалари*. Навоий ва адабий таъсир масалалари. Тошкент: Фан.
- G'azzoliy, Muhammad. 1317 (h.). *Nasihah ul-muluk*. Tehron: Majlis.

The image of Greek sages in Iskandarnames

Ilyos Ismoilov¹

Abstract

The theme of Iskandar appeared in the history of world and literature in connection with the phenomenon of Alexander the Great and spread throughout the centuries. This topic had almost a history of twenty centuries long until the time of Alisher Navoi. It is noteworthy that Nizami Ganjavi first brought this topic into the tradition of writing *khamasa*, and the main attention was paid to the nature of story of the battles. Iskander's theme has been able to preserve its original features despite the passing of many centuries, surrounded by cultures and beliefs. One of the important indicators pointing to the authenticity of this topic is the images of Greek sages, which are an important component of Iskandarnames in the East. Although these images were influenced by the Eastern worldview and Islamic ideology, they did not completely lose their "identity". Researching the genesis and gradual development of these images, studying their artistic descriptions help to imagine the creative individuality, outlook and skills of certain creative personalities. Therefore, in this article, the images of Greek sages are analyzed on the example of "Saddi Iskandari" by Alisher Navoi and "Iskandarnama" by Nizami Ganjavi. The historical development of the issue, its scale and the process of reworking in the work of Navoi are revealed.

Key words: *Iskandar, Alexander, Greek sages, image, Socrates, Plato, Aristotle, khamasa, artistic interpretation, historical and literary influence.*

References

- Aristotel. 1997. *Nikomaxova etika*. Perevodchik(i): Braginskaya Nina V. Moskva: «Izdatelstvo «EKSMO-Press».
- Avcı, İ. 2012. "Tezahürü'l-Felasife: Anadolu Sahası İskendernamelerine göre Aristo, Eflatun, Sokrat, Bukrat". *Uluslararası türk dili ve edebiyeti öğrenci kongresi*, 175-188. Tudok.
- Bassnet, S. 1995. *Comparative Literature: A Critical Introduction*. Oxford UK & Cambridge USA: Blackwell.
- Bertels, Y.E. 1965. *Izbrannie trudi. Tom 3. Sufizm i sufyskaya literatura*. Moskva: Nauka.

¹*Ilyos A. Ismoilov* – Doctor of Sciences in Phology (DSc), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

For citation: Ismoilov, I. A. 2023. "The image of Greek sages in Iskandarnames". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 58 – 76.

- Bertels, Ye.E. 1965. *Izbrannie trudy. Tom 4. Navoi i Djami*. Moskva: Nauka.
- Beruniy, Abu Rayhon. 1965. *Hindiston*. Asarlar. Besh tomlik. T.2. Toshkent: Fan.
- Diogen, Laertios. 2013. *Ünlü Filozofların Yaşamları ve Öğretileri*. Çeviren: Candan Şentuna. İstanbul: Şubat.
- Enginün, İnci. 2011. *Mukayeseli edebiyat*. İstanbul: Dergâh yayinlari.
- Fâtik, Mübeşşir ibn. 2013. *Muhtaru'l-hikem ve mehasinu'l-kelim*. Çeviren: O.Güman. İstanbul: Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı.
- Gançavā, N. 2012. *Xamsa: Iskandarnoma*. Dushanbe: Adib.
- Gasporova, M. 1968. *Basni Ezopa*. Moskva: Nauka.
- Gutas, D. *The Greek and Persian background of Early Arabic Encyclopedism*. Sayyid Mahdiy tarjimasi // <http://www.ettelaathekmatvamarefat.com/new/index>. (12.04.2018)
- Ismailov, I. (2023). Nizomiy va Navoiy: bir mavzuning turfa talqini. *Uzbekistan: yozuk i kultura. Literaturovedenie*, 1(1), 18-32.
- Ismoilov, I. (2021). Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 2(2).
- Haqqulov, I. 2012. "Navoiy va yunon falsafasi". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 3-8.
- Kaya, M. *Muhtaru'l-Hikem ve Mahasinu'l-Kelim'de Aristo-telese isnad edilen hikmetli sözler ve bunların kaynakları*. // <http://dergipark.gov.tr/download/article-file/14385> (14.04.2018)
- Koshg'ariy, Mahmud. 1961. *Devonu lug'otit turk. III tomlik. II tom*. Toshkent: Fan.
- Kratkiy slovar mifologii i drevnostey. 1894. M.Krosh. Sankt-Peterburg: izdanie A.S.Suvorina.
- Mas'udiy, Ali bin Al-Husayn. 1374 (h.). *Muruj al-zahab*. Tarjo'mayi Abulqosim Poyande. J. 1. Tehron: Shirkati intishoroti ilmiy va farhangiy.
- Mirxond, Muhammad bin Xovandshoh. 1338 (h.). Ravzat us-safo. J.1. Theron: Piruz.
- Navoiy, A. 1993. *MAT. 20 tomlik. T.11*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 2000. *MAT. 20 tomlik. T.16*. Toshkent: Fan.
- Safaviy, Sayyid Hasan. 1364 (h.). *Iskandar va adabiyoti Eron*. Tehron: Amiri Kabir.
- Sirojiddinov, Sh. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.
- Sirojiddinov, Sh. 2011. *O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Sulaymonova, F. 1984. "Saddi Iskandariy"ning yunon manbalari". *Adabiy meros* 2: 60-62.
- Sulton, I. 2010. *Navoiyning qalb daftari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Zohidov, V. 1968. *Navoiy dunyoqarashining asosiy manbalari*. Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. Toshkent: Fan.
- G'azzoliy, Muhammad. 1317 (h.). *Nasihah ul-muluk*. Tehron: Majlis.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago:

Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siy mosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.09.2023-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.

"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.

Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.